



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Saida	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY- SUBYEKTIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Temirova Shoxsanam Komilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti,
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan. Tadqiqotda o'qituvchi agentligi (teacher agency), o'qituvchi kognitsiyasi (teacher cognition), kasbiy identifikatsiya (professional identity) hamda o'qituvchi avtonomiyasi (teacher autonomy) tushunchalarining o'zaro konseptual bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil, tizimli tahlil, klassifikatsiya, bibliometrik tahlil hamda ilmiy xaritalash (science mapping) yondashuvidan foydalanilgan. Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslangan ilmiy manbalar asosida mavzuning rivojlanish dinamikasi, ilmiy hujjatlar tarkibi va fan sohalari bo'yicha taqsimoti o'rganildi. Tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, xorijiy tajribalarni milliy pedagogik amaliyotga moslashtirish hamda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi agentligi, kasbiy-subyektiv pozitsiya, agentlik bo'shliqlari, o'qituvchi kognitsiyasi, kasbiy identifikatsiya, o'qituvchi avtonomiyasi.

Abstract: This article examines theoretical foundations for developing the professional-subjective position of future English language teachers through a comprehensive review of contemporary scientific literature. The study focuses on the conceptual relationships among teacher agency, teacher cognition, professional identity, and teacher autonomy as key constructs influencing teachers' professional development. The research methodology is based on theoretical analysis, systematic review, classification, bibliometric analysis, and science mapping. Publications indexed in the Scopus international database were analyzed to identify research trends, publication dynamics, document types, and disciplinary distribution related to the selected keywords. The findings indicate that the ecological approach provides one of the most comprehensive theoretical frameworks for understanding teacher agency and the development of a professional-subjective position within contemporary teacher education. The study also highlights the need to adapt international theoretical achievements to the national educational context and to strengthen research on teacher agency in Uzbekistan. The results can serve as a theoretical and methodological basis for improving foreign language teacher education programs and for conducting future empirical research in this field.

Key words: teacher agency, professional-subjective position, spaces of teacher agency, teacher cognition, professional identity, teacher autonomy.

Аннотация: В данной статье на основе анализа современных научных источников исследуются теоретические основы развития профессионально-субъектной позиции будущих учителей английского языка. Особое внимание уделено концептуальной взаимосвязи понятий "агентность учителя" (teacher agency), "когниция учителя" (teacher cognition), "профессиональная идентичность" (professional identity) и "автономия учителя" (teacher autonomy). Методологическую основу исследования составили теоретический, системный и библиометрический анализ, классификация научных источников, а также метод научного картирования (science mapping). На основе материалов международной базы данных Scopus изучены динамика развития исследуемой проблематики, распределение научных публикаций по годам, типам документов и областям науки. Полученные результаты свидетельствуют о том, что экологический подход является одной из наиболее перспективных концепций для объяснения профессиональной субъектности и агентности учителя. Материалы исследования могут быть использованы при совершенствовании системы подготовки будущих учителей иностранных языков, разработке научно-методических рекомендаций и проведении дальнейших педагогических исследований.

Ключевые слова: агентность учителя, профессионально-субъектная позиция, пространства агентности, когниция учителя, профессиональная идентичность, автономия учителя.



KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni davrida “yagona til, yagona jamiyat, yagona bozor” tamoyili asosida kechayotgan dunyoviy rivojlanish bosqichlaridan ortda qolmaslik har tomonlama dunyo standartlariga mos va xos bo'lgan jamiyat va davlat bo'lib shakllanishimizda birlamchi axborot vositasi sifatida til qaraladi. Shu sababli hozirda dunyoning deyarli barcha davlatlarida chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Shu jumladan, O'zbekiston ham bu borada mustaqillikdan so'ng jadal chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich ma'lum strategiyalar asosida olib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, malakali pedagoglar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son¹ “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonida^[3] ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirish, milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda Prezidentning chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirishga oid qarorlari mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va pedagog kadrlarning kasbiy malakasini muntazam rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilagan^[1, 2].

Mazkur hujjatlar o'qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini oshirish borasidagi ishlarning huquqiy-me'yoriy asosini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash muhim amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va kasbiy-subyektiv pozitsiyasini shakllantirish masalasi pedagogika hamda ta'lim psixologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik refleksiya, kasbiy identifikatsiya, o'qituvchi agentligi (teacher agency) hamda subyektivlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini ongli ravishda boshqaruvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va o'z kasbiy rivojlanishiga mas'ul bo'lgan faol subyekt sifatida shakllanishi zarur^[1].

Kasbiy-subyektiv pozitsiya tushunchasi shaxsning o'z kasbiga nisbatan ongli munosabati, kasbiy qadriyatlari, motivatsiyasi, refleksiv fikrlashi va o'zini rivojlantirishga intilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu tushuncha pedagogning kasbiy faoliyatdagi faolligi, tashabbuskorligi hamda mas'uliyatini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy-subyektiv pozitsiyani rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi^[2].

Xorijiy olimlardan D. Coyle, P. Hood va D. Marsh o'z tadqiqotlarida zamonaviy pedagogni tayyorlashda integrativ yondashuvlar, xususan, CLIL texnologiyasining ahamiyatini asoslab berganlar. Mualliflarning fikricha, fan va tilni integratsiyalash asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning nafaqat predmet va til kompetensiyalarini, balki mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash, refleksiya va kasbiy faolligini ham rivojlantiradi^[3]. Mazkur g'oyalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxsning o'z imkoniyatlariga ishonchi (self-efficacy) kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Olimning ta'kidlashicha, yuqori darajadagi self-efficacy pedagogning tashabbuskorligi, kasbiy mas'uliyati va murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali hal etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi^[4]. Bu esa kasbiy-subyektiv pozitsiyaning shakllanishida psixologik omillarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi ham mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, shaxsning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlik va faoliyat jarayonida amalga oshadi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasi ham ta'lim muhiti, muloqot va amaliy pedagogik faoliyat jarayonida izchil shakllanadi^[5].

O'zbek olimlari tomonidan ham pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, N. Muslimov, U. Nishonaliyev, R. Ishmuhamedov, B. Xodjayev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va metodik asoslari yoritilgan^[6, 7]. Biroq ushbu tadqiqotlarda kasbiy-subyektiv pozitsiya mustaqil ilmiy kategoriya sifatida yetarli darajada tahlil qilinmagan.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



Shuningdek, o'qituvchi agentligi (teacher agency) bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda pedagogning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, kasbiy mas'uliyati va refleksiv faoliyati ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Priestley, Biesta va Robinsonning ilmiy qarashlariga ko'ra, o'qituvchi agentligi pedagogning shaxsiy tajribasi, mavjud pedagogik sharoit va kelajakdagi kasbiy maqsadlari o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi^[8]. Ushbu yondashuv kasbiy-subyektiv pozitsiya mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

E. Wengerning "communities of practice" konsepsiyasi o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasi va kasbiy rivojlanishini ijtimoiy hamkorlik jarayoni sifatida tushuntirish imkonini beradi^[11]. Ushbu nazariyaga ko'ra, kasbiy bilim va identifikatsiya faqat individual o'rganish natijasida emas, balki kasbiy hamjamiyadagi muloqot, hamkorlik va amaliy faoliyat orqali ham shakllanadi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida hamkorlikdagi ta'lim, jamoaviy loyihalar, pedagogik amaliyot va mentorlik faoliyatini kuchaytirish kasbiy-subyektiv pozitsiyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda o'qituvchi agentligi masalasi raqamli kompetensiya, heutagogika va ta'lim muhitidagi mustaqillik bilan bog'liq holda ham o'rganilmoqda. Jumladan, E. Cruz va F. A. Costa o'qituvchi agentligini raqamli kompetensiyani rivojlantirish va pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'laydi^[16].

M. Levanon va E. Gusacov esa heutagogik yondashuv, erkinlik va o'qituvchi agentligi o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, pedagogga mustaqil ta'lim va qaror qabul qilish imkoniyatlarini berish agentlikni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadilar^[13].

Shuningdek, E. A. C. Rushton, N. Walshe va D. Quiroz-Martinezning tadqiqotida o'qituvchi agentligining muayyan ta'lim sharoitlarida qanday namoyon bo'lishi empirik jihatdan o'rganilgan^[12].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar "kasbiy-subyektiv pozitsiya"ni bitta alohida tushuncha bilan chegaralash yetarli emasligini ko'rsatadi. Mazkur fenomen teacher agency, teacher cognition, professional identity, teacher autonomy va reflective practice kabi o'zaro bog'liq kategoriyalar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi^[4; 5; 7; 8; 9; 10]. Ularning umumiy jihati shundan iboratki, zamonaviy o'qituvchi ta'lim jarayonining passiv ijrochisi emas, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qiluvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi, o'z faoliyatini refleksiv boshqaruvchi va ta'lim muhitini takomillashtirishga intiluvchi faol subyekt sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili O'zbekiston ta'lim tizimi, xususan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini shakllantirish masalasida ilmiy-metodik ishlanmalar yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini ko'rsatadi. Mavjud xorijiy nazariyalarni milliy ta'lim sharoitiga mexanik tarzda ko'chirish emas, balki ularning mazmunini milliy pedagogik qadriyatlar, oliy ta'lim amaliyoti va bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish zarur. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini hamda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash zaruratini belgilaydi.


O'qituvchilarni tayyorlash sohasidagi tadqiqotlar tobora o'qituvchilarning mustaqil, refleksiv mutaxassis sifatida ish yuritish qobiliyatini boshlang'ich tayyorgarlik dasturlarining asosiy natijasi sifatida ko'rib chiqmoqda, biroq bu qobiliyatni tavsiflash uchun qo'llaniladigan tushunchalar turli ilmiy manbalarda sezilarli darajada farq qiladi. Mustaqillikdan keyingi pedagogik adabiyotlarning ko'pchiligida bu natija "kasbiy-subyektiv pozitsiya" nomi ostida muhokama qilinadi va u o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatida passiv ijrochi emas, balki faol subyektga aylanishini ta'minlovchi dispozitsiyalar, qadriyatlar va kompetensiyalar to'plami sifatida keng talqin etiladi. Ingliz tilidagi adabiyotlarda esa o'qituvchi agentligi bo'yicha yaqin, ammo asosan mustaqil rivojlangan tadqiqotlar yo'nalishi mavjud bo'lib, u o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni olib boruvchi sifatida qanday ish yuritishini o'rganadi^[4].

Bundan tashqari, qisman bir-biriga tushadigan, o'zaro umumiylikka ega bo'lgan yana bir yo'nalish - "o'qituvchi kognitsiyasi" va "kasbiy identifikatsiya" bo'yicha tadqiqotlar - til o'qituvchilari o'z ishlarini qanday tushunishini belgilovchi e'tiqodlar, bilimlar va o'z-o'zini anglash jarayonlarini o'rgangan^[5]. Hozirda bu terminlar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilmagan. Ayniqsa, o'qituvchi agentligi, o'qituvchining kasbiy-subyektiv pozitsiyasi borasida milliy adabiyotlarimizda yoritmalar yetarli emas. Shu sababdan bu boradagi ishlarni, avvalo, xorijiy manbalarining hozirgacha bo'lgan ma'lumotlarini to'plash, o'rganish va tahlil qilish, qayta ishlash va milliy pedagogikamizga tadqiq qilish jarayonlarini bosqichma-bosqich olib borishdan boshlash mazkur sohaning yurtimizda yana bir pog'ona yuqorilab rivojlanishiga turtki bo'ladi, deyish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotni amalga oshirish usullari sifatida nazariy tahlil, tizimli tahlil, klassifikatsiya va statistik tahlil usullaridan foydalaniladi. Olingan ma'lumotlar adabiyotlarni sifat jihatdan baholamaydi. Aksincha, ularda keltirilgan tegishli terminlarning mos kelish darajasiga ko'ra klassifikatsiya qiladi.

1-grafikda izlanishda olib boriladigan ishlar ketma-ketligi keltirilgan.



1-grafik: **Kasbiy-subyektiv pozitsiya bo'yicha olib borilishi rejalashtirilgan ishlar xaritasi**

Tadqiqot metodologiyasining asosini adabiyotlar tahlili tashkil qiladi va bu, o'z navbatida, ilmiy xaritalash deb ham yuritiladi (science mapping). Bu boradagi ishlarni, avvalo, tegishli adabiyotni to'plashdan boshlash o'rinli bo'ladi. Adabiyotlarni qidirib topish uchun ishonchli, xalqaro tan olingan bazalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada keltirilgan ma'lumotlar Scopus ma'lumotlar bazasidan olindi.



2-grafik: **Aniqlangan ilmiy hujjatlar tasnifi**

Metodologik tahlilning dastlabki qadami www.scopus.com saytiga kirish bilan boshlanadi. Qidiruv bo'limiga o'tib, birinchi ustundan kalit so'zlar bo'yicha qidiruv qismi tanlanadi. Kalit so'zlar yoziladi: "O'QITUVCHI", "SUBYEKTIV POZITSIYA", "AGENTLIK", "O'QITUVCHI AGENTLIGI", qidiruv tugmasi bosiladi. Shundan so'ng ekranda hech qanday cheklovlar qo'yilmasdan oldin 1999-yildan 2027-yilgacha bo'lgan kalit so'zlar yoritilgan 1953 ta hujjat topildi. Aniqlikni oshirish maqsadida ba'zi cheklovlar qo'yildi:

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Fan tarmog'i bo'yicha cheklov bo'limidan "IJTIMOIY FANLAR" (Social science) bo'limi tanlandi va natijalar 1938 taga tushdi. Bu natija kalit so'zlar bo'yicha eng ko'p izlanish olib borilgan soha ijtimoiy soha ekanligini ko'rsatadi.
2. Hujjat turiga qo'yiladigan cheklovlar bo'limidan "ILMIY MAQOLA" bo'limi tanlandi. Mazkur cheklovdan so'ng hujjatlar soni 1510 taga tushdi. Bu kalit so'zlar yoritilgan kitob bo'limlari soni 159 tani, kitoblar soni 20 tani, konferensiya materiallari soni esa 26 tani tashkil etadi.
3. Tilga qo'yiladigan cheklov bo'limidan "INGLIZ TILI" tanlandi. Shundan so'ng natijalar 1732 tani ko'rsatdi. Bu esa mazkur soha bo'yicha izlanishlarning asosiy tili ingliz tili ekanligini ochib berdi.


Yuqoridagi cheklovlar statistik analiz uchun xos bo'lgan maxsus cheklovlar bo'lib, bundan tashqari, adabiyotlardan o'qish va ma'lumot olish uchun foydalanish maqsadida bo'lgan izlanuvchilar uchun "OCHIQ FOYDALANISH" (OPEN ACCESS) bo'limidan "OLTIN" (GOLD) bo'limi tanlanadi. Shundan so'ng maqolalarga kirib, to'liq shakldagi matnidan foydalanish va ularni bepul yuklab olish imkoni mavjud bo'lgan hujjatlar ko'rinadi. Eng yuqori qismida hujjatlar soni ham keltiriladi. Mazkur vaqtga ko'ra, bunday hujjatlar soni kalit so'zlar bo'yicha 315 tani tashkil etdi.



Olingan ma'lumotlar statistikasi quyidagilarni ko'rsatdi:


Birinchidan, 1-rasmda Scopus bazasidan to'g'ridan-to'g'ri olingan, qaysi yilda nechta kalit so'zlarga tegishli bo'lgan ilmiy hujjatlar topilganligini grafik asosida ko'rishimiz mumkin. Bu analizni amalga oshirishda mazkur saytning "ANALYTICS" bo'limidan foydalanildi.

Ikkinchidan, quyidagi 1-diagrammada kalit so'zlar yoritilgan ilmiy hujjatlar turining ulushlari foizlarda (%) keltirilgan.



1-diagramma: Qamrab olingan ilmiy hujjat turlari

Uchinchidan, navbatdagi grafikda tegishli terminlarning fan tarmoqlarida qo'llanish ulushlari keltirilgan (foizlarda, %).



2-diagramma: Kalit so'zlar qo'llanilishining fan sohalari tarmog'idagi hissasi

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-subyektiv pozitsiyasi quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar orqali namoyon bo'ladi:

1. **Kasbiy agentlik** - mustaqil pedagogik qaror qabul qilish va tashabbus ko'rsatish;
2. **Kasbiy kognitsiya** - pedagogik bilim, qarash, e'tiqod va kasbiy tafakkur;
3. **Kasbiy identifikatsiya** - o'zini pedagogik kasb vakili sifatida anglash;
4. **Kasbiy avtonomiya** - o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va boshqarish;
5. **Refleksivlik** - o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish;
6. **Ijtimoiy-kasbiy hamkorlik** - pedagogik hamjamiyat, mentor va hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilish.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari kasbiy-subyektiv pozitsiyani alohida bir kompetensiya bilan cheklash mumkin emasligini ko'rsatdi. U o'qituvchining faol subyekt sifatida shakllanishini ta'minlovchi bir nechta psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning o'zaro birligi sifatida namoyon bo'ladi. Scopus ma'lumotlaridagi ilmiy



nashrlar dinamikasi, hujjat turlari va fan sohaları bo'yicha taqsimot ham ushbu yo'nalishning xalqaro miqyosda rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida reflektiv ta'lim, mustaqil pedagogik qaror qabul qilish, hamkorlikdagi faoliyat, pedagogik amaliyot, mentorlik va innovatsion faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratish zarurligi belgilandi. Mazkur natijalar keyingi bosqichda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik modeli va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash har tomonlama murakkablikka ega bo'lgan mas'uliyatli pedagogik jarayondir. Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqildi. Adabiyotlar tahlili quyidagilarni ko'rsatdi:

Birinchidan, mazkur tushuncha an'anaviy kasbiy kompetensiya yoki pedagogik mahorat tushunchalaridan kengroq mazmunga ega bo'lib, o'qituvchining o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, qaror qabul qilishi, refleksiya olib borishi hamda ta'lim jarayoniga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ifodalaydi. Shu jihatdan kasbiy-subyektiv pozitsiya o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida markaziy omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasida mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, "teacher agency", "teacher cognition", "professional identity", "teacher autonomy" kabi tushunchalarning o'zaro uzviy bog'liqligi aniqlandi. Olingan natijalar mazkur terminlar bir-birini to'ldiruvchi ilmiy kategoriyalar ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, mazkur mavzu bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarning asosiy qismi ijtimoiy fanlar yo'nalishiga to'g'ri keladi. Bu esa o'qituvchi agentligi faqat metodik muammo emas, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Ilmiy maqolalarning ulushi eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etishi ushbu sohada ilmiy izlanishlar muntazam olib borilayotganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, tahlil qilingan xorijiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-subyektiv pozitsiyani shakllantirish faqat nazariy bilim berish orqali emas, balki amaliy faoliyat, reflektiv mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, hamkorlikdagi o'qitish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini yaratish orqali samarali amalga oshiriladi. O'qituvchi agentligi o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki ta'lim muhiti, institut madaniyati, mentorlik tizimi va pedagogning shaxsiy motivatsiyasi ta'sirida rivojlanadi.

Bunday yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki kelajakdagi pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etuvchi va o'z kasbiy rivojlanishini mustaqil boshqaruvchi mutaxassis bo'lishi zarur.

Shuningdek, tahlillar milliy pedagogik adabiyotlarda "o'qituvchi agentligi" va "kasbiy-subyektiv pozitsiya" tushunchalariga oid ilmiy ishlanmalar soni cheklanganligini ham ko'rsatdi. Mazkur holat ushbu yo'nalishda yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini asoslaydi. Xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash sifatini yanada oshirish mumkin.

Beshinchidan, ilmiy xaritalash (science mapping) metodologiyasidan foydalanish tadqiqot mavzusining rivojlanish dinamikasini, asosiy ilmiy maktablarni, yetakchi mualliflarni hamda istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi. Bu esa keyingi ilmiy izlanishlarda empirik tadqiqotlarni tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklavlarga ham ega. Jumladan, tahlillar asosan Scopus ma'lumotlar bazasidagi ilmiy manbalar bilan cheklangan bo'lib, boshqa xalqaro bazalardagi maqolalar qamrab olinmagan. Bundan tashqari, maqolada empirik tajriba natijalari emas, balki nazariy va bibliometrik tahlillar asosiy o'rinni egallaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda eksperimental ishlar, pedagogik tajriba-sinovlar hamda statistik ishonchlilik tahlillarini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy va bibliometrik tahlillar natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida "teacher agency", "teacher cognition", "professional identity" hamda "teacher autonomy" tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq ilmiy kategoriyalar sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

Scopus ma'lumotlar bazasi asosida o'tkazilgan tahlillar mazkur mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni yil sayin ortib borayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida reflektiv ta'lim, mustaqil qaror



qabul qilish, innovatsion pedagogik faoliyat hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Bu esa kelajakdagi pedagoglarning kasbiy kompetentligini, ijodkorligini va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy pedagogika fanida o'qituvchi agentligi va kasbiy-subyektiv pozitsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish hamda ushbu yo'nalishda maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari keyingi empirik izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сон "Таълим тўғрисида"ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги ПҚ-1875-сон "Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". - Toshkent, 2022.
4. Priestley, M. R., Biesta, G., & Robinson, S. (2015). *Teacher agency: An ecological approach*. Bloomsbury Publishing.
5. Borg, S. (2003). Teacher cognition in language teaching: A review of research on what language teachers think, know, believe, and do. *Language Teaching*, 36(2), 81-109.
6. Izadia, M. (2014). Teacher educators' identity: A review of literature. *European Journal of Teacher Education*, 37(4), 426-441.
7. Biesta, G., & Tedder, M. (2007). Agency and learning in the lifecourse: Towards an ecological perspective. *Studies in the Education of Adults*, 39(2), 132-149.
8. Eteläpelto, A., Vähäsantanen, K., Hökkä, P., & Paloniemi, S. (2013). What is agency? Conceptualizing professional agency at work. *Educational Research Review*, 10, 45-65.
9. Lasky, S. (2005). A sociocultural approach to understanding teacher identity, agency and professional vulnerability in a context of secondary school reform. *Teaching and Teacher Education*, 21(8), 899-916.
10. Schön, D. A. (1983). *The reflective practitioner: How professionals think in action*. Basic Books.
11. Wenger, E. (1998). *Communities of practice: Learning, meaning, and identity*. Cambridge University Press.
12. Rushton, E. A. C., Walshe, N., & Quiroz-Martinez, D. (2026). Understanding spaces of teacher agency: A case study of the experiences and practices of secondary school teachers in England. *Teaching and Teacher Education*, 181, 105729. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2026.105729>
13. Levanon, M., & Gusacov, E. (2026). Heutagogy, freedom and teachers' agency. *Frontiers in Education*, 11, 1813112. <https://doi.org/10.3389/educ.2026.1813112>
14. Berlin, I. (2002). *Liberty*. Oxford University Press.
15. Freire, P. (2005). *Pedagogy of the oppressed* (M. Bergman Ramos, Trans.). Continuum.
16. Cruz, E., & Costa, F. A. (2026). Empowering teacher agency in the development of digital competence in primary education: Lessons from the Escol@s Digitais Project. *European Educational Research Journal*, 25(4), 580-597. <https://doi.org/10.1177/14749041251369925>
17. Binkhorst, F., Handelzalts, A., Poortman, C. L., van Joolingen, W. R. (2015). Understanding teacher design teams - A mixed methods approach to developing a descriptive framework. *Teaching and Teacher Education*, 51, 213-224.
18. Scopus. <https://www.scopus.com> (murojaat sanasi: 29.07.2026).
19. ERIC - Education Resources Information Center. <https://eric.ed.gov> (murojaat sanasi: 29.07.2026).
20. UNESCO Digital Library. <https://unesdoc.unesco.org>. (murojaat sanasi: 29.07.2026).
21. OECD Education. <https://www.oecd.org/education>. (murojaat sanasi: 30.07.2026).
22. European Commission. Education, Youth, Sport and Culture. <https://education.ec.europa.eu>. (murojaat sanasi: 01.08.2026).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.